



**№3**

# **MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR**

**ILMIY ELEKTRON JURNALI**



**ISSN: 2181-3965**  
**VOLUME 5**  
**TOSHKENT 2026**

# “MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR” ILMIY ELEKTRON JURNALI TAHRIRIYAT KENGASHI RAISI

**To‘lqin Zakirovich Teshabayev** – tahririyat kengashi raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI

**Mehmonov Sultonali Umaraliyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘quv ishlari bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Karimova Komila Daniyarovna** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Yoshlar masalalari va ma‘naviy-marifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich** - Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Hududiy ta‘lim masalalari va markazlar bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sindarov Sherzod Egamberdiyevich** – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Infratuzilmalarni rivojlantirish va iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori

**Islamkulov Alimnazar Xudjamuratovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Pardayev Abdunabi Xoliqovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Kuziyev Islomjon Ne‘matovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Baymurotov Tursunbay Maxkambayevich** – iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

**Omonov Akrom Abdinazarovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Qongratbay Avezimbetovich** – texnika fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vaziri

**Jumayev Nodir Xosiyatovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi deputati

**Haydarov Nizomiddin Hamroyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Raviprakash G. Dani** – Xalqaro ta‘lim konsultanti, professor (AQSH)

**Bagautdinova Nailya Gumerovna** – Qozon federal universiteti Boshqaruv, iqtisodiyot va moliya instituti direktori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya Federatsiyasi)

**Sharifzoda Mu‘min Mashokir** – Tojik davlat huquq, biznes va siyosat instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Tojikiston Respublikasi)

**Maley Elena Borisovna** – Polotsk davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent (Belarus Respublikasi)

**Asif Mahbub Karim** – Malayziya Menejment va tadbirkorlik universiteti professori (Malayziya qirolligi)





**Piter Xayk** – Yevropa amaliy fanlar va menejment instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori (Chexiya Respublikasi)

**Yavuz Demirel** – Kastamonu universiteti professori (Turkiya Respublikasi)

**Jo‘rayev Abdug‘affor Safarovich** – Termez agrotexnologiyalar va Innovatsion rivojlanish instituti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ismanov Ibroxim Nabiyeovich** – Farg‘ona politexnika instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xayriddinov Azamat Botirovich** – Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti prorektori iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Tashnazarov Samiddin Nizamovich** – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti kafedra mudiri, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nurmanov Ulug‘bek Anorbayevich** - Bank-moliya akademiyasi “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida professori, iqtisodiyot fanlari doktori

**Yakubova Nargiz Tursunbayevna** – iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Mamatov Baxadir Safaraliyevich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Qiyosov Sherzod Uralovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Urazaliyev Kamoliddin Tajikulovich** – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

#### JURNAL TAHRIRIYATI

**Saparov Aktam Jo‘rayevich** – bosh muharrir, filologiya fanlari doktori, dotsent

**Avlokulov Anvar Ziyadullayevich** – ilmiy muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Aliqulov Mehmonali Salohiddin o‘g‘li** – mas‘ul muharrir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Buxorova Moxira Samandarovna** – muharrir

*O‘zbekiston Respublikasi OAK Rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 364-son qarori bilan “Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari yuzasidan assosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.*

**“Moliyaviy texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali**

23.11.2022-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №R-566966 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №049864




**MUNDARIJA**

1.	Шаисламова Наргиза Кабиловна	Тижорат банклари рискларини баҳолашда стресс-тест усулидан самарали фойдаланиш	7
2.	Ashurova Nargiza Chori qizi	O‘zbekiston turizm xizmatlari bozorida gastronomik turizmi rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari	19
3.	Mamatqulov Avazbek Axmadaliyevich	Oliy ta‘lim muassasalarida ichki audit tizimini raqamlashtirish mexanizimini takomillashtirish	24
4.	Sobirov Otabek Olimjonovich	Boshqaruv hisobini tashkil etishning konseptual asoslari	36
5.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Boqiyeva Zuhra Soxibjon qizi	Iqlim o‘zgarishining iqtisodiyotga ta’siri	41
6.	Xalimov Shaxboz Xalimovich	Qishloq joylarida turizm xizmatlarini rivojlantirishning xorij tajribalari	48
7.	Kenjayev Ikrom Ergashboyevich	Hududlarda investitsiya mexanizmlarini takomillashtirishning institutsional va moliyaviy omillari	53
8.	Rustamov Maqsud Suvonqulovich, Normatov Muslimbek No‘rbo‘ta o‘g‘li	Kredit riski	60
9.	Курбонов Саид Акбарович	АҚШ федерал резерв тизими (ФРТ) ва унинг иктисодиётга таъсири	67
10.	Bekmurodova Feruza Azamat kizi, Kadambaeva Charos Masharip kizi	Economic cooperation practices and development trends in Middle Eastern countries	73
11.	Mardonova Malika Asatilloevna	Xavfsiz turizm tushunchasining nazariy-uslubiy asoslari	80
12.	Alimov Baxodir Batirovich	Rivojlangan sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy holati va samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlili	85
13.	Narziyev Abror Baxtiyorovich	Moliyaviy bozorlardagi volatillik dinamikasining GARCH modellari asosida empirik tahlili	95
14.	Xoldorova Kamola Jamoliddin qizi, Murodova Dilnoza Choriyevna	O‘zbekistonda tijorat banklarini transformatsiya qilishning dolzarb masalalari	106
15.	Юсупов Бехзод Юсуп угли	Финтех-ориентированная модель комплексной оценки кредитоспособности корпоративных клиентов и её влияние на эффективность банковских решений	112
16.	Ташбаева Рано Гайбуллаевна, Ташбаев Улугбек Ванситович	Цифровая оценка конкурентоспособности предприятий HoReCa на основе Open Data и онлайн-платформ (на примере г. Ташкента)	120
17.	Баракаев Отабек Отакулович	Ўзбекистонда аудиторлик хизматлар бозорининг 2020-2025 йилларга тахлили ва уни такомиллаштириш йўналишлари	127
18.	Muradov Botir Hayat	Yevropa iqtisodiyotining yashil transformatsiyasida iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq fizik va moliyaviy risklar tahlili	140
19.	Isroiljonov Murodil Qosimjon ugli	Household Consumption, Imports, and Gross Capital Formation in Uzbekistan: Evidence from an ARDL Model	148
20.	Чориева Нигина Қахрамановна	Классик иктисолий назариялар асосида тадбиркорлик субъектларининг экспорт салоҳиятидан фойдаланиш самарадорлигини ошириш хусусиятлари	155





21.	Chintemirova Diyora Shuxrat qizi	Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari	160
22.	Artikov Ne'matulla Abdusalamovich	Soliqli daromadlar oshishida sheringning iqtisodiy imkoniyatlari	166
23.	Кузиева Динора Баходировна	Узоқ муддатли активларни баҳолаш тартибини такомиллаштириш	173
24.	Умарова Гулзодахон Қодирбековна	Кичик бизнесни муқобил молиялаштиришнинг илғор хорижий тажрибалари	181
25.	Murtozayeva Zarnigor Komol qizi	Tashabbusli budget mablag'larini ijtimoiy ehtiyojlar asosida manzilli taqsimlash mexanizmlarini takomillashtirish	187
26.	Baytanov O'ralboy Miraqul o'g'li	Sanoat korxonalarida mahsulot sifatini boshqarishning zamonaviy metodologik yondashuvlari	193
27.	Mardonov Akromjon Nusrat ogli	The impact of fiscal policy on the national economy	201
28.	Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	O'zbekiston respublikasining aholi hayot sifati va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik baholash	206
29.	Babaxanova Nozima Saidakbarovna	Milliy fond bozorida aksiyalarni ommaviy joylashtirish mexanizmlarini transformatsiya qilish yo'llari	213
30.	Tilabov Nasrulla Tashmurotovich	O'zbekistonda davlat qarz portfelini risk-diyagnostika asosida boshqarish metodologiyasini takomillashtirish	220
31.	Rahmonova Durdona Hasan kizi	Effective management of investment opportunities and regional economic diversification: evidence from the kashkadarya region	226
32.	Xamdamov Omonullo Ne'matullayevich	Kapital bozorida moliyaviy resurslar jalb qilishning xalqaro amaliyot tajribalari	233
33.	Achilov Dilshod Marufovich	Innovatsion faoliyatning moliyaviy ta'minot manbalari va ularni samarali boshqarish yo'llari	244
34.	Baratova Zumrat Xalmetjanovna	Innovatsion faoliyat bilan bog'liq moliyaviy risklarni boshqarish	253
35.	Mavlyanova Yulduzxon Turg'unovna	Moliyaviy resurslarni samarali boshqarishda ERP (Enterprise Resource Planning) mexanizmidan foydalanish istiqbollari	261
36.	Ishniyazov Otabek Baxodirovich	Bank faoliyatida risklarning turlari, ularni samarali boshqarish	268
37.	Baxriddinov Kamoliddin Baxriddin o'g'li	Aksiyadorlik jamiyatlarida investitsiyaviy qaror qabul qilish amaliyotining tahlili	275
38.	Qudratova Feruza Nasriddinovna	Financing decisions and value creation in an emerging economy: Evidence from the capital structure of Uzauto Motors	283
39.	Xasanov Komil Mutalibjanovich	Chiqindilarni boshqarishda yevropa ittifoqi tajribasi va uni o'zbekiston sharoitida qo'llash	591
40.	Orzukulova Zumrad Abdukhalik kizi, Azimova Nozimakhon Alisher kizi	Strategic brand management: review of keller's brand equity model and Aaker's brand identity system	297
41.	Ollokulova Feruza Mansurovna	Davlat xususiy sheriklik rivojlanishining xorij tajribasi va undan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	302
42.	Umurzakova Dildora Sultonmaxmudovna	Raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar bandligiga doir muammolarning asosiy yo'nalishlari	310
43.	Jo'rayeva Zarifa Bahodir qizi	Tijorat banklarida kredit xizmatlari amaliyotining dolzarb masalalari	317





44.	Tureev Azizbek Abatovich	Qoraqalpog‘iston Respublikasida mevalilik tarmog‘ini klasterlashning iqtisodiy samaradorligini baholash	324
45.	Mirzataev Muratbaevich	Salamat Ekologik muammolar sharoitida qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta‘minlashda smart texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari	329
46.	Komekova Gulzira Sharbaevna	Raqamlashtirilgan logistika tizimlari asosida sabzavotchilik mahsulotlari bozorining samaradorligini oshirish yo‘llari	335
47.	Qidirmiyazov Sherniyazovich	Ajiniyaz Qoraqalpog‘iston Respublikasida qurilish sohasining rivojlanish holati va sun‘iy intelkt asosida xizmat kursatishni rivojlantirish istiqbollari	340
48.	Розиков Жалил Жалолович	Вопросы реформирование бухгалтерского учета в сельском хозяйстве	346
49.	Karimov Gapardjonovich	Eminjon Sanoat korxonalarida moliyaviy tahlil axborot tizimini takomillashtirish masalalari	351
50.	Toshev Nurbek Janon o‘g‘li	Qashqadaryo viloyatida turizm samaradorligi indeksi (TEI) asosida mintaqaviy turizm rivojlanishi dinamikasini baholash	359
51.	Kurbonova Malika Akhmad kizi	Comprehensive methodology for assessing the effectiveness of digital economy technology implementation in regional economic development	365
52.	Isakova Naima Ikromjonovna	Xizmat ko‘rsatish korxonalarida turizmni rivojlantirish uchun strategik marketing dasturini ishlab chiqish va uni takomillashtirish yo‘llari	371
53.	Sultanova Nigora Xikmatxo‘ja qizi	Xarajatlar hisobida ABC va BSC tizimlari integrativ tahlili	377
54.	Muminova Parvina Ilhom qizi	Bank majburiyatlari hisobi va ichki auditini takomillashtirish	383
55.	Abduraxmonova Alimov Baxodirovich	Munisa, Ulug‘bek Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish korxonalarida biznesni rivojlantirish tamoyillari va bosqichlari	389
56.	Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li	Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini takomillashtirish yo‘llari	395
57.	Xamdamov Komilovich	Shavkat Aholini ijtimoiy himoyalash moliyaviy mexanizmi samaradorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari	402
58.	Ruziyev G‘anisher Usarovich	Soliqlar vositasida tadbirkorlikni rivojlantirish va bandlikni ta‘minlash orqali daromadlarni oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirish masalalari	411
59.	Atamuratova Muzafarovna	Gulrux Kichik biznes tizimlarining iqtisodiy mohiyati va ularni modellashtirish bo‘yicha zamonaviy xorij tajribasi	419
60.	Mirzayeva Charos G‘ayrat qizi	Savdo va xorijiy investitsiyalarning iqtisodiy o‘shisdagi o‘rni: Janubiy Koreya va O‘zbekiston misolida qiyosiy ekonometrik tahlil	424
61.	Toshpulatov Akromovich	Davron Islom moliyasida risklarni boshqarish	437
62.	Amir Xudaykulov	Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq EBITda indikatorini hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari	451





## TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**Axmedov Shoymurod Azamat o‘g‘li**

*tayanch doktoranti*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*E-mail: [shomurod.axmedov@mail.ru](mailto:shomurod.axmedov@mail.ru)*

*ORCID: [0009-0004-9164-1379](https://orcid.org/0009-0004-9164-1379)*

**Annotatsiya.** Maqolada tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qarorlarini asoslash bo‘yicha mavjud yondashuvlar muhokama qilinadi. Investitsiya loyihalarni moliyalashtirish samaradorligini baholash bo‘yicha stop-faktor tizimini afzalliklari keltirilgan. Startup loyihalarni baholash va moliyalashtirish mexanizmlari taklif etilgan. Qabul qilingan investitsiya qarorlarining haqiqiylikini pasaytiradigan muammolar aniqlandi. Qabul qilingan qarorlarning asoslilikini oshirish va mintaqa rivojini boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida tezkor yechimlarni talab qiluvchi asosiy yo‘nalishlar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** investitsiyalar, investitsiya loyihasi, stop-faktor tahlil tizimi, startup loyihalarni baholash, modulli kreditlash tizimi, samaradorlik mezonlari, iqtisodiy samaradorlikni baholash, moliyaviy natijalar ko‘rsatkichlari.

## СПОСОБЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСИРОВАНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

**Ахмедов Шоймурод Азамат угли**

*аспирант*

*Ташкентский государственный*

*экономический университет*

*E-mail: [shomurod.axmedov@mail.ru](mailto:shomurod.axmedov@mail.ru)*

*ORCID: [0009-0004-9164-1379](https://orcid.org/0009-0004-9164-1379)*

**Аннотация.** В статье рассматриваются существующие подходы к обоснованию решений коммерческих банков о финансировании и поддержке инвестиционных проектов. Представлены преимущества системы стоп-факторов для оценки эффективности финансирования инвестиционных проектов. Предложены механизмы оценки и финансирования стартап-проектов. Выявлены проблемы, снижающие обоснованность инвестиционных решений. Для повышения обоснованности принимаемых решений и улучшения эффективности управления региональным развитием разработаны ключевые области, требующие оперативных решений.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционный проект, система анализа стоп-факторов, оценка стартап-проектов, модульная система кредитования, критерии эффективности, оценка экономической эффективности, показатели финансовой эффективности.

## WAYS TO IMPROVE THE EFFICIENCY OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS IN COMMERCIAL BANKS

**Akhmedov Shoymurod Azamat ugli**

*PhD student*

*Tashkent State University of Economics*

*E-mail: [shomurod.axmedov@mail.ru](mailto:shomurod.axmedov@mail.ru)*

*ORCID: [0009-0004-9164-1379](https://orcid.org/0009-0004-9164-1379)*





**Abstract.** *The article discusses existing approaches to justifying decisions of commercial banks on financing and supporting investment projects. The advantages of the stop-factor system for assessing the effectiveness of financing investment projects are presented. Mechanisms for assessing and financing startup projects are proposed. Problems that reduce the validity of investment decisions are identified. In order to increase the validity of decisions made and improve the efficiency of managing regional development, key areas requiring rapid solutions are developed.*

**Keywords:** *investments, investment project, stop-factor analysis system, startup project assessment, modular lending system, performance criteria, economic efficiency assessment, financial performance indicators.*

### **Kirish**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklari barqaror faoliyat yuritishi uchun likvidlik va rentabellik oʻrtasidagi muvozanatni saqlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Bank aksiyadorlari yuqori daromad olishdan manfaatdor boʻlsa, omonatchilar mablagʻlarining xavfsizligi va likvidligini taʼminlashni talab qiladi. Ushbu manfaatlar qarama-qarshiligi bank investitsion faoliyatida investitsiya risklarining yuzaga kelishiga sabab boʻladi.

Tijorat banklarining investitsion faoliyatida asosan kredit, bozor va foiz stavkasi risklari uchraydi. Kredit riski qarz oluvchi yoki emitentning moliyaviy majburiyatlarini bajara olmasligi bilan bogʻliq boʻlsa, bozor riski qimmatli qogʻozlar qiymatining bozor sharoitlari taʼsirida pasayishi natijasida yuzaga keladi. Mazkur risklar investitsiya faoliyati samaradorligiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Banklarning investitsiya loyihalariga mablagʻ yoʻnaltirishi yuqori daromad olish imkoniyatini yaratishi bilan birga, maʼlum darajadagi tavakkalchilikni ham keltirib chiqaradi. Shu sababli investitsion faoliyatni samarali tashkil etish, risklarni boshqarish va puxta investitsiya siyosatini yuritish banklar oldidagi muhim vazifalardan hisoblanadi. Jahon amaliyotida investitsiyalarning “oltin qoidasi”ga koʻra, investitsiyadan olinadigan daromad darajasi qabul qilinadigan risk miqdoriga toʻgʻridan-toʻgʻri proporsional boʻladi. Shuning uchun tijorat banklari investitsiya qarorlarini qabul qilishda rentabellik, likvidlik va risk oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni hisobga olishlari zarur.

### **Adabiyotlar sharhi**

Tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirish iqtisodiy rivojlanish va investitsiya faolligini taʼminlashning muhim omillaridan biridir. Ilmiy tadqiqotlarda loyiha moliyalashtirish mexanizmlari samaradorligi hamda investitsiya loyihalarini baholashda NPV, IRR va diskontlangan pul oqimlari usullaridan foydalanish tavsiya etilgan [1].

Investitsion kreditlash samaradorligi kredit risklarini baholash, risklarni diversifikatsiya qilish va kredit portfelini samarali boshqarish bilan bogʻliq [2]. Tadqiqotlarda banklar va davlat institutlari hamkorligini rivojlantirish investitsiya risklarini kamaytirishi taʼkidlangan [3]. Yashil investitsiyalarni moliyalashtirish va ekologik mezonlarni kreditlash tizimiga joriy etish ham samaradorlikni oshiradi [4].

Raqamli transformatsiya, sunʼiy intellekt va Big Data texnologiyalaridan foydalanish investitsiya loyihalarini baholash sifatini yaxshilaydi [5]. Mahalliy tadqiqotlarda banklarning uzoq muddatli resurs bazasini kengaytirish muhim omil sifatida eʼtirof etilgan [6]. Shuningdek, kapital yetarliligini taʼminlash [7], ESG tamoyillarini joriy etish [8] va raqamli monitoring tizimlaridan foydalanish [9] investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini baholash va uni takomillashtirish yoʻllarini aniqlashga qaratilgan ilmiy-uslubiy





yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik tahlil hamda tizimli yondashuv usullari qo‘llanildi.

Shuningdek, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashda mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro moliyaviy institutlar hisobotlari hamda tijorat banklari faoliyatiga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar o‘rganildi. Tadqiqot davomida investitsiya loyihalarini baholashning zamonaviy mezonlari, kredit risklarini boshqarish mexanizmlari va banklarning investitsion faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha nazariy qarashlar umumlashtirildi.

Olingan natijalar asosida tijorat banklarida investitsiya loyihalarini moliyalashtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

### Tahlil va natijalar

Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotini davr talabiga mos ravishda rivojlantirishda investitsiyalar o‘rni beqiyos bo‘layotganligini strategik dasturlardan ham bilish mumkin. Ular 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasidan ham munosib o‘rin olgan. Xususan strategiyaning: 26- maqsadida: Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko‘rish, belgilangan.

Banklarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda mijozlarni skoring tahlilini amalga oshirish muhim hisoblanadi. Korporativ va kichik biznes subyektlarining moliyaviy holati va kreditga layoqatliligini tahlil qilish bosqichlari:

- Qarz oluvchining kreditga layoqatliligini «STOP»-faktorlar orqali avtomatik ravishda baholash;
- Qarz oluvchilarni sifat ko‘rsatkichlari asosida skoring tahlil qilish;
- Qarz oluvchilarni miqdoriy (moliyaviy) ko‘rsatkichlar asosida skoring tahlil qilish;
- Qarz oluvchilarning skoring tahlili natijalarini baholash tizimi;
- Qarz oluvchilarning pul aylanmasi hamda biznes-reja ko‘rsatkichlarini tahlil qilish;
- O‘tkazilgan tahlil natijalarini umumlashtirish va xulosa tayyorlash

1-jadval

### Qarz oluvchilarning kreditga layoqatliligini «STOP»-faktorlar orqali avtomatik ravishda baholash tizimi<sup>41</sup>

T/r	Belgilangan mezonlar («STOP»-faktorlar)	Tahlil natijasi
1	“nol” balans (nulevoy balans)	HA / YO‘Q
2	Bankda 90 kundan oshgan muddati o‘tgan qarzdorligi mavjudligi	HA / YO‘Q
3	Boshqa moliya-kredit tashkilotlarida 90 kundan oshgan muddati o‘tgan qarzdorligi mavjudligi	HA / YO‘Q
4	Bank yoki boshqa moliya-kredit tashkilotlarida hisobdan chiqarilgan (voz kechilgan) qarzdorliklar mavjudligi	HA / YO‘Q
5	Bank yoki boshqa moliya-kredit tashkilotlarida sud jarayonidagi qarzdorliklar mavjudligi	HA / YO‘Q
6	Muddatida to‘lanmagan qarzdorliklar (K-2) mavjudligi	HA / YO‘Q
7	Bankrotlik holatlari, jarayonlari mavjudligi	HA / YO‘Q
8	O‘z mablag‘larining manfiy ko‘rsatkichi (balansdagi jami o‘z mablag‘lari miqdori manfiy son bo‘lsa)	HA / YO‘Q
9	Nolikvid balansga ega bo‘lsa (o‘z mablag‘lari manbai va uzoq muddatli majburiyatlarining yig‘indisi uzoq muddatli aktivlari summasidan kam bo‘lsa)	HA / YO‘Q
10	Hisobot davrida (yilida) qarz oluvchi faoliyatining zarar bilan yakunlanganligi (moliyaviy hisobotlardan aniqlanadi)	HA / YO‘Q

<sup>41</sup> Muallif ishlanmasi





Tahlil natijasida yuqoridagi mezonlardan biri yoki bir nechta kuzatilsa (natija «HA» javobiga to‘g‘ri kelsa), kredit berish avtomatik ravishda rad etiladi

Tijorat bankida modulli kreditlash amaliyotining rivojlanganligi sababli mijozlarga tez va ortiqcha hujjatlarsiz xizmatlar ko‘rsatilib kelinmoqda. 2025 yil sentyabr holatiga bankda jami korporativ mijozlar bilan 10 000 dan ortiq shartnomalar imzolangan bo‘lsa, shundan modulli kredit shartnomalar soni deyarli 51 foizni tashkil etmoqda. Modulli kreditlarda asosan hujjatlar elektron tarzda shakllantiriladi bu esa ortiqcha vaqt sarflanishini oldini oladi. Bankning umumiy ajratilgan kreditlar uchun o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi 19.2 foizni tashkil qilgan vaziyatda modulli kreditlarda bu 24 foizni tashkil etib 4.8 foizga yuqori hisoblanadi. Bankning bazaviy stavkasi 21 foiz bo‘lib undan 3 foizga baland. 2025 yil sentyabr holatiga modulli kreditlar jami hajmi 1.5 trillion so‘mdan yuqori va jami modulli kreditlarning 1 foizdan kamroq qismi muammoli kreditlar sifatida tasniflanadi.

2021 yilda innovatsion va istiqbolli startup loyihalarga sarmoya kiritish maqsadida “AloqaVenchures” venchur fondini tashkil yetdi. “AloqaVenchures” venchur fondi faoliyati kompaniyalar, startup loyihalar va ularning hamkorlari bilan birgalikda zamonaviy texnologik yechimlarni yaratish, global muaffaqiyatlarga yerishish, raqamli transformatsiyalar peshqadamiga aylanishga qaratilgan. Shu sababli S&P 500 indeksiga e‘tibor beradigan bo‘lsak TOP 10 kompaniyalar asosan texnologiya bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar egallab kelmoqda. Indeksdagi TOP 10 kompaniyalarning umumiy bozor bahosi 2013 yilda 13.4 trln AQSH dollarini tashkil qilgan bo‘lsa, shundan 86.6 % ulush texnologiya bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalarga tegishli. Bu ko‘rsatkich 1995 yilda atiga 16.6 % ni tashkil qilgan. AloqaVenchure ham manashu sababli ham asosan yuqori texnologik loyihalarni moliyalashtirishni asosiy maqsad qilib qo‘ygan.

Hozirda tijorat banklarini mustaqil audit tekshiruvchi orqali bank holatini aniqlashda dunyodagi eng katta audit tashkilotlaridan biri PWC (PricewaterhouseCoopers) imkoniyatlaridan foydalanish yildan yilga kengaymoqda. O‘zbekiston hududida ham unga bo‘lgan talab oshib bormoqda. PWC audit tashkilotining tavsiyalari aynan bank sohasi va bank investitsiya loyihalarini baholashni takomillashtirishda juda muhim hisoblanadi. PWC xalqaro tashkilot va O‘zbekistonda ham ko‘p yillar faoliyat yuritib kelmoqda. PWC kompaniyasi “Dunyoda yuz berayotgan voqealarga qaramasdan, O‘zbekistondagi tadbirkorlarning 76 foizi mamlakat iqtisodiyotining o‘rishini kutmoqda. Prognoz qilinayotgan o‘rish O‘zbekistonning ichki salohiyati, xorijiy investitsiyalar, kompaniyalar va jismoniy shaxslar oqimi, xususiylashtirish jarayonlari, biznes muhitini yaxshilashga qaratilgan islohotlar hamda hukumat tomonidan belgilangan rivojlanish strategiyasi bilan izohlanadi.<sup>42</sup>” deb fikr bildirmoqda. PWC audit tashkilotining kerakli tavsiyalari asosida tijorat banklarining investitsiya loyihalari baholashni takomillashtirish va samarali loyihalarni aniqlashda muhim hisoblanadi. PWC kompaniyasi tavsiyalari bir qancha usullar asosida boyitilgan va unga ko‘ra startup loyihalarni moliyalashtirishda

Daromadga ega bo‘lmagan tashkilotlarni baholash jarayonida, odatda, Berkus va Scorecard kabi baholash metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi. Ushbu usullar startapning dastlabki bosqichida moliyaviy ko‘rsatkichlar hali shakllanmagan bo‘lgan sharoitda, loyihaning potensial qiymatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Startapda aniq va prognoz qilinadigan daromad shakllangan bosqichda esa DCF (Discounted Cash Flow) yoki bozor multiplikatorlariga asoslangan baholash yondashuvlaridan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ushbu metodlar mavjud daromad oqimlari, kutilayotgan pul tushumlari va bozor qiymati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni inobatga oladi. Umuman olganda, metod tanlashda startup loyihasing daromadga ega yoki ega emasligi asosiy mezon hisoblanadi.

Berkus usuli — bu startaplarni baholashda ishlatiladigan amaliy yondashuv bo‘lib, u dastlab Devid Berkus (David Berkus) tomonidan ishlab chiqilgan. U asosan startapning dastlabki bosqichida (ya’ni hali barqaror daromadga ega bo‘lmagan, lekin istiqbolli) kompaniyalarni

<sup>42</sup> Muallif ishlanmasi





baholash uchun mo'ljallangan. Bu usulda asosiy e'tibor moliyaviy ko'rsatkichlarga emas, balki biznes g'oyasi, jamoa, bozor imkoniyatlari va xatarlarni kamaytirish strategiyalariga qaratiladi.

**2-jadval.**

**Har bir bosqich uchun baholash metodlari<sup>43</sup>**

No	Bosqich	Qo'llaniladigan baholash usullari	Izoh
1	G'oya	Fixed ranges, Cost approach, Scorecard method	Hali moliyaviy oqim yo'qligi sababli, baholash subyektiv yoki o'xshash loyihalarga asoslangan
2	Start-up bosqich	Cost approach, Scorecard method	Ilk prototip, konsept isboti mavjud bo'lishi mumkin
3	Boshlang'ich bosqich	VC method, Scorecard method	Investorlar tomonidan foydalaniladi; baholashda daromad kutilmalari hisobga olinadi
4	Rivojlanayotgan bosqich	Discounted Cash Flow (DCF)	Kutilayotgan foydani diskontlash orqali real qiymat aniqlanadi
5	Barqaror o'sish bosqich	Market multiples, DCF	Bozor o'xshash kompaniyalar bilan taqqoslanadi (P/E, EBITDA multiple va h.k.)

Tijorat banklarining investitsiya jarayonida ishtirok yetish salohiyati, birinchi navbatda, ularning resurs bazasining yetarliligi bilan belgilanadi. Mamlakatimiz tijorat banklari resurs bazasining birinchi qismini kapital, ikkinchi qismini depozitlar tashkil yetadi. Bugungi kunda banklarning resurs bazasini mustahkamlash, aholi va tadbirkorlik subyektlarining bo'sh mablag'larini jalb yetish maqsadida tijorat banklari tomonidan uzoq muddatli obligatsiyalar va depozit sertifikatlarini chiqarishga alohida ye'tibor qaratilmoqda. O'z navbatida, aholi real daromadlarining o'sishi, banklardagi omonatlarning davlat tomonidan to'liq kafolatlangani, mijozlarning birinchi talabiga ko'ra omonatlarning qaytarilishining ta'minlangani va bank omonatlaridan foiz daromadlarining ozod yetilishi barqaror o'sishini ta'minlamoqda. aholining tijorat banklaridagi omonatlari hajmi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimiz tijorat banklari depozitlarining umumiy o'sish tendensiyasiga qaramasdan, ularning bazasini uzoq muddatli depozitlar hisobiga yanada mustahkamlash zarur. Aks holda muddatli mablag'lar tanqisligi yuzaga keladi, bu yesa tijorat banklarining kreditlash imkoniyatlarini oshirishni cheklaydi. Respublika tijorat banklarining investitsiya kreditlari hajmiga Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasi ham ta'sir ko'rsatadi.

Tijorat banklarining muddatli depozitlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan majburiy zahira stavkalarining pasaytirilishi va tabaqalanishi tufayli tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash imkoniyati yaratildi. Natijada kredit resurslarining multiplikativ kengayishi yuz berdi. Banklarning investitsion faolligiga inflyatsiya ham ta'sir ko'rsatadi. Yuqori inflyatsiya sharoitida banklarning investitsion faolligi sekinlashadi, chunki kreditlar bo'yicha foiz stavkalari oshadi va banklarning spekulyativ operatsiyalarga qiziqishi kuchayadi.

Inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, banklarning real foiz stavkasi shunchalik past bo'ladi, bu yesa banklarni sarmoya kiritishga undamaydi. Shunday qilib, banklarning investitsiya faoliyatidagi ishtirokiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarning ijobiy ta'sirini oshirish maqsadida hukumatimiz tomonidan oqilona siyosat olib borilib, bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilayotgan loyihalar va kreditlar hajmi ko'paymoqda. Bizning fikrimizcha, iqtisodiyotning real sektorida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda quyidagi muammolar mavjud:

<sup>43</sup> Muallif ishlanmasi





iqtisodiyotning real sektori korxonalarining investisiya faoliyatini moliyalashtirishda garov ta'minoti muammolari: garov ta'minotini baholash, sotish, mijozning roziligisiz garov ta'minotini undirish va olib qo'yish, garovni notarial tasdiqlash, garovni saqlash, kafolatlash;

iqtisodiyotning real sektori korxonalarining investisiya faoliyatini moliyalashtirishda xorijiy tajribadan yetarlicha foydalanilmayotganligi;

nobank kredit tashkilotlari faoliyatini tartibga solish va rag'batlantirishning samarali tizimining yetarli darajada yaratilmaganligi, kredit olish uchun garovning yetarli yemasligi, kredit olish jarayonining murakkabligi;

iqtisodiyotning real sektori korxonalarida investisiya faoliyatini moliyalashtirish amaliyotini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar mavjudligi;

iqtisodiyotning real sektori korxonalarida investitsiya faoliyatini moliyalashtirishda tijorat banklari tomonidan muddati o'tgan kreditlarning mavjudligi va boshqalar.

Ushbu muammolarning ijobiy hal yetilishi real sektor korxonalarining investisiya faoliyatini moliyalashtirishni yaxshilash imkonini beradi.

### **Xulosa**

O'zbekistonda loyihalarni moliyalashtirishda bank kredit manbalarining ishtirokini belgilovchi omillar qatorida raqobat muhiti va Markaziy bank tomonidan olib borilayotgan pul-kredit siyosati, foiz siyosati va bank institutlarining strategiyasi bor.

Bugungi kunda banklarning investitsiya faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy yo'nalishi risklarni hisoblash va ularni minimallashtirish, ularni samarali boshqarish yo'llarini izlash imkonini beruvchi loyihalarni moliyalashtirishni rivojlantirish hisoblanadi. Kreditlarni qaytarish va kreditni oldindan belgilangan shartlarda qaytarish majburiyati asosiy fondlarga qo'yilgan mablag'lardan oqilona foydalanishga olib keladi va ishlab chiqarish quvvatlarini o'z vaqtida ishga tushirish va o'zlashtirish uchun mas'uliyatni oshiradi.

Investitsion kreditlashni iqtisodiy asosda tashkil yetish kapital sarf-xarajatlarning yakuniy natija bilan uzviy bog'liqligini ta'minlashga yordam beradi, samaradorlikni oshirishning yeng tejankor variantlarini tanlashga qiziqishni oshiradi va foydani oshirish imkoniyatlarini faol izlaydi, shu bilan birga foyda asosiy summani oshiradi. qarz va uning foizlari. qaytish manbai bo'ladi.

Banklarning kredit siyosati mablag'larni yeng zarur loyihalarga samarali qo'yishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, bu yesa resurslar ko'rinishidagi uzoq muddatli depozitlarni jalb qilishni talab qiladi. Bizningcha, kredit resurslarini markazlashgan holda boshqarishning taqsimlash tizimidan voz kechish kerak bo'ladi. Ularni yaxshiroq boshqarish uchun kredit resurslaridan foydalanishni pul-kredit siyosatining ustuvor yo'nalishlariga rioya qilgan holda banklar bilan bog'lash kerak.

Tijorat banklarining investitsiya faolligini oshirishda banklarning moliyaviy resurs bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga yega. Shu munosabat bilan banklarning kapitallashuv darajasini yanada oshirishga alohida ye'tibor qaratish lozim. Faol operatsiyalar stavkasi kapital miqdori bilan ham belgilanishini hisobga olib, quyidagilarga alohida ye'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir:

- banklarning moliyaviy resurslari tarkibida uzoq muddatli mablag'lar hajmini oshirish, bu borada yuridik va jismoniy shaxslarning bo'sh pul mablag'larini jalb yetishga yo'naltirilgan obligatsiyalar chiqarish;

- soliq imtiyozlaridan foydalangan holda sertifikatlar bo'yicha foizlarni to'lashda inflyatsiya va devalvatsiya sur'atlarini hisobga olgan holda tijorat banklari tomonidan chiqarilgan depozit sertifikatlarining resurs jozibadorligini kuchaytirish;

- tarmoqlar va hududlar kesimida investisiya mablag'laridan samarali foydalanishni nazarda tutuvchi o'zaro kelishilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish va izchil amalga oshirish;

- tijorat banklarining investisiya imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ochiq bozor operatsiyalarini rivojlantirish;





- investitsiya riskini kamaytirish maqsadida tijorat banklari tomonidan aktivlarni diversifikatsiya qilish, shu jumladan risklarni samarali boshqarish zarur boshqaruv chora-tadbirlarini muntazam ravishda amalga oshirish va boshqalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Brealey R.A., Myers S.C., Allen F. *Principles of Corporate Finance*. 14th Edition. New York: McGraw-Hill Education, 2023.
2. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking and Financial Markets*. 14th Edition. Pearson Education, 2024.
3. World Bank. *Global Economic Prospects: Investment and Growth Outlook*. Washington DC, 2024.
4. Asian Development Bank. *Asian Development Outlook 2024: Financing Sustainable Development*. Manila, 2024.
5. OECD. *Digital Transformation in Finance and Banking*. Paris: OECD Publishing, 2024.
6. Jo‘rayev T., Xudoyqulov S. *O‘zbekistonda bank-investitsiya faoliyatini rivojlantirish istiqbollari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2023.
7. International Monetary Fund. *Global Financial Stability Report*. Washington DC, 2024.
8. OECD. *ESG Investing and Sustainable Finance Review*. Paris: OECD Publishing, 2024.
9. European Bank for Reconstruction and Development (EBRD). *Transition Report 2024–2025: Finance and Investment*. London, 2025.

